

МАМКАКАТ ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИНГ РИВОЈЛАНИШИДА ЙОСХ КАДРЛАРНИНГ О'РНИ

Gulbaxor Abdullyevna Gaynazarova

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lism texnologiyasi
kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD)*

Nilufarxon Ikromjon qizi Muqimjonova

*Qo'qon universiteti Ta'lism fakulteti
Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi*

Annotation: Ushbu maqolada mamlakat ta'lism tizimida yoshlarni, yosh kadrlarni o'rni va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumot berilgan.

Keywords: yoshlar, kadr, burch, malaka, mutaxassis

THE ROLE OF YOUNG PERSONNEL IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM

Abstract: This article provides information about the role of youth and young personnel in the country's education system and the opportunities created for them.

Key words: youth, personnel, duty, qualification, specialist

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, umumiyl o'rta, professional va oliy ta'lism muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbai bilan ta'minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT-texnologiyalarni o'rgatish, tadbirkorlikka keng jalb etish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2021-yilning o'tgan davrida yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirilgani, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun 61 ming hektar yer maydoni ajratilgani bu boradagi ishlarning ko'لامи tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajodolarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oljanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek

singari ulug‘ allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma’rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o’lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug‘ bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo‘lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir. Bu borada yurtimizda mutloqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta’kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta’lim olayotgan ko‘plab o‘quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar.¹

O‘zbekistonda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sur’atlari yil sayin takomillashib bormoqda. Ushbu dasturga kiritilgan vazifalarning sifat bosqichiga o‘tish, avvalo, oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida tahsil olayotgan talabalar bilim va malakalariga shunday talablar qo‘yadiki, ular ishlab chiqarishning qaysi sohasida faoliyat yuritmasin, Vatan taraqqiyoti, yurt ravnaqi va xalq farovonligiga astoydil xizmat qiladigan, fidoyi, professional kasb egalari bo‘lishlari lozim. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish, Harakatlar strategiyasida ta’kidlangan ustuvor vazifalar oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog - olim oldiga yuksak ma’naviyatli shaxslarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ularni kasb sir-asrorlaridan to‘la boxabar qilishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida katta e’tibor berib kelinmoqda. Hozirgi kunda ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi har qanday davlatni zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omilga aylanganligi hammaga ma’lum. Ilmiy- texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlariga, balki madaniy, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, ta’lim sohasiga ham innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.²

Zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashda o‘quvchi-talabalar bilimini nazorat qilish, sinash va baholashning ahamiyati katta. Agar uni yaxshi yo‘lga qo‘yilmasa, qiziqarli dars o‘tish uchun turli topshiriqlar tayyorlashimizdan qat’iy nazar kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki inson ongida har doim o‘z mehnat faoliyatini baholovchi psixologik jarayon ro‘y berib turadi. O‘z ishini natijasi baholanmasa yoki baholanishidan, taqdirlanishidan ko‘ngli to‘lmasa faolligi susayadi,

¹ Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi “O‘zbekiston” Toshkent - 2023

² M. G’aniyeva Ta’lim asoslari Toshkent - 2022

oxir-oqibat "hafsalasi pir" bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlarga e'tiborni maktabdan boshlamog'imiz zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z kitoblari "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" da aytib o'tganlaridek "Maktab masalasi – bu kelajak masalasi, hayot-mamot masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning yo'lg'iz o'zi hal qilolmaydi. Bu – butun jamiyatning ishiga aylanishi kerak" ³ deb maktab bu bizni kelajagimiz ekanligini ta'kidlab o'tganlari bejiz emas. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. O'tgan asr boshida jadid bobolarimiz shuning uchun ham maktab masalasini eng birinchi o'ringa qo'yishgan. Jadidlarimiz sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib – o'rganib ilmli, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota – onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallshga yordam berishlari kerakligini, ota – onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar. Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat qilib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va ravnaq etishga chorlaganlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda jadid bobolarimizning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadir, nafsoniyat va g'urur emas muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz".

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an'anaviy uslublarga tayanib dars o'tish yetarli emas. Bu esa ta'lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida respublikamizda katta amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlariga mos yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash, o'qituvchi va rahbar xodimlar malakasini oshirish markazlarining tashkil etilishi va ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi bunga misol bo'la oladi. Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'zin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning interaktiv metodlari muhim o'rin tutadi. Shu bilan saviyasi baland o'quv adabiyotlari yaratishni ham talab qiladi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limi mazmunini ishlab

³ Sh. Mirziyoyev "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" Toshkent – "O'zbekiston" - 2020

chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirish borasida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Hozirgi zamon talabiga ko‘ra maqsad tayyor bilimni o‘zlashtirish emas, balki asosiysi o‘quvchi-talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga ularda mustaqil tanlash, qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish bo‘lib, bunday xislatni tarbiyalash ko‘p jihatdan dars o‘tishda qo‘llaniladigan metodlarga bog‘liq. Shuning uchun ko‘proq ana shu masalalarga diqqat qaratilishi lozim. Aynan buyuk faylasuf Konfutsiy ta’kidlaganidek: "Ajoyib noz- ne'matlar bo‘lishi mumkin, ammo tatib ko‘rmasdan uning lazzatini tushunmaysan; oliy haqiqat bor, lekin o‘qib o‘rganmay, izlanmay, uning ruhingga orom beruvchi, seni qoniqtiruvchi jihatlarini tushunmaysan. Shu sababli faqat o‘qish, o‘rganishni boshlabgina o‘zingni ko‘p narsalarini bilmasligingni his qilasan; Faqat boshqa- larni o‘qitish, o‘rgatishni boshlabgina uni qanchalar qiyin, mashaq- qatliligini anglaysan. Ammo o‘zingni barkamol emasligingni bilgach, o‘z ustingda ishlashing mumkin; mashaqqat, qiyinchiliklarni boshdan kechiribgina, bardoshli, kuchli bo‘lishni o‘rganishing mumkin".

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi “O‘zbekiston” Toshkent – 2023
2. Sh. Mirziyoyev “ Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari ” Toshkent – “O‘zbekiston” – 2020
3. G‘aniyeva Ta’lim asoslari Toshkent - 2022
4. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. *Academia Repository*, 4(12), 131-135.
5. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.
6. Gaynazarova, G. A. (2023). Oliy ta’lim tizimida talabalar individual ta’limini tashkil etish muammolari. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 60-64.
7. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B12), 330-333.
8. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(7), 676-679.
9. Sultansaidova, M. (2023). SOME ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. *International Journal of Pedagogics*, 3(02), 51-55.
10. Тешабоева, З. С. (2020). БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРДА КАСБИЙ МОТИВАЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАЗМУНИ. *Academic research in educational sciences*, (3), 557-562.